



## HOZIRGI DAVR EKOLOGIK DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING TARIXIY-RETROSPEKTIV ASOSLARI

**Zarmamat Kenjayev**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti*

[Zarmamatkenjayev83@gmail.com](mailto:Zarmamatkenjayev83@gmail.com).

*Tel: (91) 226-05-06*

**Аннотация:** Maqolada ekologik dunyoqarash tarixida turli diniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, an'analar tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlashga doir o'tmish mutafakkirlarining ilmiy, diniy va badiiy-ijodiy merosi hozirgi davr uchun ham o'z nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, shaxs ekologiyasi, globallashuv, ekologik dunyoqarash, shaxs, jamiyat, ekologik talab, ekologiya sohasi.

**Аннотация:** В статье научное, религиозное и художественное наследие мыслителей прошлого по сохранению чистоты природной среды, различных религиозных ценностей, национальных обычаев и традиций в истории экологического мировоззрения имеют свои теоретические, методологические и практическое значение для современного периода. выявлено и доказано.

**Ключевые слова:** экология, экология личности, глобализация, экологическое мировоззрение, человек, общество, экологический запрос, область экологии.

**Abstract:** In this state, the scientific, religious and godly inheritance of the past thinkers and the preservation of the purity of the natural environment, various religious values, national customs and traditional and historical ecological worldviews have their theoretical, methodological and practical significance for the modern period.

XX asrning so'nggi choragidan boshlab, insoniyat tabiatni zamonaviy antropogen, antropotexnogen bosimlarga dosh bera olmasligini, uning o'z-o'zini tiklash imkoniyatlari ko'rsatilgan bosimlar kuchidan bir necha barobar kamligini anglab oldilar. Ularni tushunish uchun insoniyat, eng avvalo, o'zining tabiiy-ilmiy tafakkuriga, falsafiy, diniy va boshqa dunyoqarashlar tizimiga murojaat qilishga majbur bo'lmoqda. Bunga misol sifatida AQShda shakllangan "invayronmentalizm"



g‘oyasi va uning amalda namoyon bo‘lishi “Rim klub” faoliyati ekologik dunyoqarashning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida e’tiborga munosib.

Amerika kashf etilib, o‘zlashtirish boshlanganda uning tabiiy resurslari cheksiz ko‘ringan bo‘lsa-da, XIX asr o‘rtalariga kelib o‘zlashtirilmagan yer maydonlari tugab qoldi. Bu ekologik inqirozning boshlanishi edi. Tadqiqotchilar A.Ergashev va T.Ergashevlarning ma’lumotlariga ko‘ra, agar o‘tgan asrda har yili tabiatdan bittadan tur yo‘qolgan bo‘lsa, keyingi 50-60 yil ichida 76 dan ortiq turlar yo‘qolib ketgan, 600 ga yaqin turlar esa yo‘qolish arafasida[1]. Insonlar bu inqiroz mazmunini anglash jarayonida tabiiy muhit bilan yangicha munosabatlar qurish zarurligini tushunib oldi.

Antropotsentrik ekologik ong insoniyatni boshi berk ko‘chaga olib kirishini anglab olinganligi "amerika invayronmentalizmi" degan umumnazariy ekologik dunyoqarash tarkib topishiga turtki berdi. Uning diqqat markaziga jamiyat va tashqi tabiiy muhitning o‘zaro munosabatlari qo‘yildi. Bu ekologik dunyoqarash ta’limotiga[2]ko‘ra, inson har qancha o‘ziga xosliklar, qaytarilmas noyob ijtimoiy xislatlar va mazmun-mohiyatga ega bo‘lishiga qaramay, baribir, Yer yuzida yashayotgan jonivorlar turining bittasi, xolos. U nafaqat ijtimoiy muhitda, balki tabiiy muhitda ham yashashga majburligidan, uning mavjudligi asosi bo‘lgan obyektiv ekologik qonuniyatlar hayotini determinlashtiruvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun u tabiat qonunlariga mos ravishda ularga bo‘ysunib yashashi lozim[3].

Bu ta’limot asosida rossiyalik N.I.Vernadskiy va boshqa g‘arblik tadqiqotchilar tomonidan Yer tabiatini yagona biosfera tashkil etishi, bunda o‘simlik va hayvonot dunyosi kabi insoniyat ham uning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi, insonning tabiatdan ustunligi, aslida uning qonunlariga bo‘ysunishini anglatishi haqidagi ta’limot ishlab chiqildi[3].

Bu ta’limotga ko‘ra, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, faqat tabiat qonunlariga monand bo‘lsa insoniyat kelajagining ta’milanishi, ishlab chiqarish jarayonlari va ko‘lami tabiiy evolyutsiya chegaralardan chiqib ketmasa, insoniyat Yerda yashay olishi mumkinligi g‘oyasi (yo‘nalishlari va xarakteridan qat’iy nazar), barcha dunyoqarashlar mazmuniga singdirildi.

Bu davrning asosiy xususiyati biosfera va texnologiyalarni insonparvarlashtirishga qaratilgan dunyoqarashlar integratsiyasini yangi bosqichga ko‘tarilishi va nisbatan universal-umuminsoniy ta’limotlar yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Ma’lumki, texnogen sivilizatsiya natijalarini baholash mezonlarida



ekologik madaniyat va uning tarkibiy qismi ekologik axloqning o‘rni ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan etika fanining ekologik gumanizm tushunchasini ilmiy muomalaga kiritishi ham tasodifiy emas.

Fikrimizcha, ekologik dunyoqarashning asosi va mazmuni faqatgina “inson va inson”, “inson va tabiat”, “jamiyat va tabiat” o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarga asoslanuvchi kundalik ma’naviy-axloq normalari, maishiy faoliyat doirasidagi munosabatlар ifodasidan iborat emas, avvalo, umuminsoniy ekologik ma’naviy qadriyatlarni insoniyat istiqbollari, manfaatlari asosida nazariy mushtaraklashtirish ehtiyojlari hamda tarixiy zaruriyatdan kelib chiqadi.

Shu nuqtai nazardan zamonaviy shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy - adabiy me’rosini tarixiy zaruriyat taqozosi, deb tushunish joiz. Xususan, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat ijodida tabiat go‘zalligi timsollarini Vatan tuyg‘usi orqali ifodalash ekologik dunyoqarashning badiiy-estetik mazmunini tashkil qilgan.

Fitrat g‘oyalaringin mantiqiy davomi sifatida Abulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon o‘zining “Navro‘z kunida” she’rida o‘lkaning tutqinligi istibdodda ekanligini tabiat manzaralari tashbehi orqali ko‘rsatishi, uning ekologik dunyoqarashini badiiy obrazlarda namoyon qiladi. Ayniqsa, “Ko‘klam kelar” she’rida tabiatga o‘zgacha tuyg‘u bilan yondashilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi, ya’ni:

Ko‘klam oyim yo‘lga chiqqan, ko‘klam oyim qo‘zg‘algan,

Ko‘k ko‘ylakning bitishiga uncha ham ko‘p qolmagan.

Tiniq havo Ko‘k yuzida oppoq, xarir pardadek,

Oq bulutlar unda bunda yoyilganlar parishon[5].

Keltirilgan dalillarga tayanib aytishimiz mumkinki, Sharq, xususan o‘zbek xalqi ma’naviy merosining tarixiy qadriyatlari mazmunida shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirish va boyitib borishga xizmat qiladigan: ilmiy, diniy, badiiy hamda falsafiy g‘oyalarni, ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy asoslarini ko‘plab topish mumkin.

Bunda asosiy masala, ajdodlarimizning milliy-ma’naviy merosi tarixida shaxs ekologik ongi va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan qadriyatlarni ijodiy rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni, usul va vositalarni yaratish zamonaviy ekologik dunyoqarash asosini tashkil qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:



- 1) ekologik dunyoqarash tarixidagi ma'naviy-madaniy merosni ijodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi vorislik munosabatlarini tahlil etish hozirgi davr ekologik dunyoqarashini shakllantirib, keskinlashayotgan va globallashayotgan ekologik muammolarni hal qilishning muhim omiliga aylanmoqda;
- 2) turli tarixiy davrlarda shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishi obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari: afsonaviy, diniy mazmundagi g'oyalari sintezlashuvi zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi;
- 3) ekologik dunyoqarash tarixida turli davr diniy qadriyatları, milliy urfatlar, an'analar tabiiy atrof - muhit musaffoligini saqlashga yo'naltirilgan o'tmish mutafakkirlarining ilmiy merosi hozirgi davrda ham o'z amaliy ahamiyatini yo'qotmagan;
- 4) ekologik dunyoqarashning umuminsoniy xususiyatlarini shakllantirishda Sharq va G'arb allomalari ijod namunalarini ilmiy o'rganish, umumlashtirish ekologik dunyoqarashni universallashtiradi;
- 5) barcha xalqlarning, shu jumladan, xalqimizning mentalitetiga xos ekologik dunyoqarashini shakllantirishda insoniyat tarixida yaratilgan tabiat muhofazasining nazariy-ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil etish va ulardan amaliy foydalanish muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эргашев А., Эргашев Т. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2005. 241- б.
2. Бунда ҳар қандай таълимотнинг, моҳиятан муайян дунёқарашни тарғиб қилиш функцияси назарда тутилмоқда.
3. <sup>2</sup> Қаранг: Науменко О.А. Инвойронментализм: истоки и ценностные ориентации. Автореф. на соиск. к.ф.н. - Ташкент.: 2012. 10- стр.
4. <sup>3</sup> Шу ўринда Н.И.Вернадский ва Тейяр-де Шарден томонидан ишлаб чиқилган ноосфера ҳақидаги таълимотни экологик дунёқарашнинг маҳсус йўналиши сифатида эътироф этиш зарурлигини таъкидлаш жоиз.
5. Қаранг: Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. -Тошкент.: Ўзбекистон, 1997. 169- б
6. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2023): 67-67.



7. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
8. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.
10. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
11. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje*. 22 (2022): 229-231.
12. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA'NAVIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL* 3 (18) (2022).